

Ingliz Va O'zbek Tillarida Shaxmat Terminologiyasining O'Ziga Xos Xususiyatlari

Abdusalyamova Nodira Azim qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ikkinchi bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada chog'ishtirilayotgan ingliz va o'zbek tillarida shaxmat o'yini terminlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Shaxmat o'yini jarayonida ifodalanuvchi omonim va antonim so'zlar, o'zak morfemalar, terminologik iboralar va frazeologik birikmalar tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, shaxmat terminlari, struktura, madaniy hodisa, semiotika, omonim, antonym so'zlar, o'zak morfemalar.

Ma'lumki, terminologiya – bu bilim yoki faoliyatning ma'lum bir sohadagi tushunchasini va tabiiy tilning terminlari to'plamini tahlil qiluvchi yo'nalishdir. Terminologiya zamonaviy tilshunoslik fanining dolzarb va ilg'or yo'nalishlaridan biri bo'lib, terminologiyada olimlar terminning mohiyatini, uning xususiyatlarini o'rganishga murojaat qiladilar, shu bilan bir qatorda terminologiya fanining meta-til muammolari, terminologik tizimlarning shakllanishi, terminologiya va determinatsiya jarayonlari, terminografiya masalalarini yoritib berishga harakat qilishadi. Bunday terminologik tadqiqotlar bilan shug'ullangan olimlar sifatida A.A. Reformatskiy, G.O.Vinokur, V.P. Danilenkolarni e'tirof etishimiz mumkin bo'ladi.

Dunyoda sportning ommaviyligi, uning jadal rivojlanishi nafaqat musobaqalar ishtirokchisi, balki ko'plab ilm sohiblarini ham o'z auditoriyasiga jalb qiladi. Xususan, shaxmat o'yini ham bugungi kunda dunyo miqiyosida yuqori intellektual sport o'yini sifatida o'z o'rniga va mavqeyiga ega hisoblanadi. Mazkur o'yin ko'p asrlar va hatto ming yillar davomida dolzarb bo'lib kelmoqda va unga qiziqish yildan - yilga ortib bormoqda. Aynan shaxmat o'yinini o'ziga xos xususiyati shundan iboratki u madaniy hodisa sifatida, shu bilan bir qatorda semantik va semiotik nuqta nazaridan tilshunos olimlarning alohida e'tiborini tortganligiga amin bo'lishimiz mumkin.

Shaxmat terminologiyasi xususida fikr yuritishdan avval shaxmatning lug'aviy ma'nosini lug'atlardagi tasvifiga to'xtalsak: shaxmat – fors tilida shox o'ldi ma'nosini ifodalovchi o'yin turi bo'lib, 64 ta oq va qora katakli taxta va 16ta oq va 16ta qora donalardan iborat sport o'yini qurolidir.¹

A.Karayev o'z tadqiqotlarida shaxmat terminologik tizimining o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qiladi va shaxmat atamalarining nominativ ma'nolari, shaxmat terminlarining ko'pligi kommunikativ vaziyatlarda foydalanish uchun muhim manba ekanligini tadqiq etadi.²

Izlanuvchilar I.Zxuravleva va M.Vlavatskayalar ingliz tilidagi shaxmat terminlarining strukturasini o'zlarining tadqiqot ishlarida tavsiflagan. Shu bilan bir qatorda tadqiqotchilar murakkab

¹ O'zbek tili izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahr.ost. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. – 556 b

² Karayev A. A. Speci.fics of chess terminology. // Филологические науки. Казахский национальный университет имени аль-Фараби, г. Алматы, Республика Казахстан. – С. 102-104.

terminologik birliklar tarkibiga ikki yoki undan ortiq terminologik iboralar ham kirishini va ular semantik yaxlitlik xususiyati bilan tavsiflanishini aniqlagan.³

Olimlar Pius Ten Hacken, Maria Koliopouloular izlanishlari jarayonida yunon tili va ingliz tilidagi shaxmat terminlaridagi o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilgan, shuningdek tadqiqotchilar shaxmat terminologiyasini uchta tipga asosan tavsiflagan.⁴

Leksik sathda shaxmat terminologiyasini tahlil qilish jarayonida, shaxmat o'yinida ham antonimlar ya'ni qara – qarshi, zid ma'noli so'zlar mavjudligiga guvoh bo'lindi.

Ing.t:

- ✓ Win – lose;
- ✓ Form – antiform;
- ✓ tempo loss – tempo gain.

O'zb.t:

- ✓ G'alaba qozonish – yutqazish;
- ✓ Shakl – shaklsiz;
- ✓ Tempni yo'qotish – tempni oshirish.

Aynan shaxmat o'yini jarayonida omonim so'zlar ham tahlilga tortildi.

Ing.t: “play”

1. General name of the competition in sports games, and matches;
2. While the game, friendly game, majority game, final game, middle game, and game.

O'zb.t: “o'yin”

1. Do'stona o'yin;
2. o'yin jarayoni;
3. ko'pchilik o'yini;
4. yakuniy o'yin.

Izlanishlar natijasida chog'ishtirilayotgan tillarda shaxmat o'yinida qo'llaniluvchi terminologik birliklardagi o'ziga xosliklar o'rganildi. Mazkur jarayonda oddiy komponentli va murakkab komponentli birliklarga bo'linishi aniqlandi. Murakkab birliklarning oddiy birliklarga nisbatan sezilarli ustunligi va o'ziga xos terminologik xususiyatlari mavjudligi aniqlandi.

Dastavval oddiy ya'ni bir komponentli terminologik birliklarning birinchi guruhiga o'zak so'zlarni kiritish mumkin.

Ing.t:

- B – black, bust, board, break;
- C – chess, center, cheapo, cover, coach, cook, corr, check, crush;
- D – draw, decoy, draw;
- E – edge;
- F – file, flank, frame, final, flag;

³ Zxuravleva I, Vlavatskaya M. Structural schemes of English chess terminology. // International Conference on Language and Technology in the Interdisciplinary Paradigm. – Novosibirsk State Technical University, 2021. – P. 71-76.

⁴ Hacken P, Koliopoulou M. Three types of terminology in chess. // Research Gate, 2015. – P. 63-74.

G – gambit, gardez;

K – kick, king;

L – line, loss;

M – match, move, mate, master;

N – norm.

P – pawn, pin, ply;

Q – queen;

R – rank, rook.

S – sac, score, sharp, shot, simul, slow, stem, strong.

T – time, tiger.

W – win

O‘zb.t:malika, farzin, dona, qirol,ot, shox, o‘yin, final, g‘alaba, durang, murabbiy, piyoda, oliya, farzin, ruh, fil, sipoh, raqib, grossmeyster.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, shaxmat terminologiyasini ham nazariy ham amaliy jihatdan o‘rganish tilshunoslikda terminologiyaning taraqqiy etishiga hissa qo‘shadi. Ma‘lumki, har qanday sohada yangi terminologik birliklarning shakllanishi sifatli tarkibiy tahlilni talab qiluvchi faol doimiy jarayondir. Yuqoridagi misollar asosida chog‘ishtirilayotgan ingliz va o‘zbek tillarida shaxmat terminlarining strukturasi tahlilga tortildi va har ikki tilda ham shaxmat terminlari qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklar aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Guriyevich.L. English-Russian Chess Glossary. Rhode Island (USA). – 2026. –117 b.
2. Karayev A. A. Specifics of chess terminology. // Филологические науки. Казахский национальный университет имени аль-Фараби, г. Алматы, Республика Казахстан. – С. 102-104.
3. Hacken P, Koliopoulou M. Three types of terminology in chess. // Research Gate, 2015. – P. 63-74.
4. Zxuravleva I, Vlavatskaya M. Structural schemes of English chess terminology. // International Conference on Language and Technology in the Interdisciplinary Paradigm. – Novosibirsk State Technical University, 2021. – P. 71-76.
5. Isabekov. Sh.M. Shaxmat tarixi va uning asoslari. Uslubiy qo‘llanma. Namangan – 2022. – B. 115-116.
6. Jamolxonov. H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin nashriyoti, 2005. – 272 b.
7. O‘zbek tili izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahr.ost. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. – 556 b